

O'zbekiston florasida Parrya turkumiga oid fan uchun yangi tur kashf etildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari F.M. Madaminov, N.Yu. Beshko va Karamdoshlar (Brassicaceae) oilasi bo'yicha taniqli olim, Janubiy Sibir botanika bog'i yetakchi mutaxasisi D.A. German Parrya R.Br. turkumiga oid fan uchun yangi tur topishdi.

Yangi tur namunalarini ilk bor 2023 yilning 6 mayida D.A. German, F.M.Madaminovlarning Toshkent viloyatida joylashgan Chotqol tizmasi, Chorvoq suvombori atrofidagi yonbag'irliklarda, 900–1000 metr balandlik oralig'ida olib borgan ilmiy dala tadqiqotlari davomida topilgan. Fan uchun yangi sifatida topilgan bu turning populyatsiyalari Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog'i hududiga to'g'ri keladi va Obirahmat tabiat yodgorligi atrofida joylashgan.

Mazkur o'simlik turi Markaziy Osiyo florasining keng ko'lamli tadqiq etish, O'zbekiston florasida bo'yicha yangi avlod tadqiqotlarini olib borish, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarning muhofazasini ilmiy asosda tashkil etish va shu kabi qator yo'nalishlarni rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini inobatga olgan holda Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori, akademik K.Sh. Tojibayev sharafiga Tojibaev parryasi — Parrya tojibaevii D.A.German & Madaminov deb nomlandi.

Tojibaev parryasi to'g'risidagi batafsil ilmiy ma'lumotlar nufuzli Phytotaxa jurnalida nashr etildi (<https://doi.org/10.11646/phytotaxa.633.2.5>) va The International Plant Names Index (<https://www.ipni.org/>) xalqaro ma'lumotlar bazasida fan uchun yangi biologik tur sifatida joylashtirildi (<https://www.ipni.org/n/77334280-1>).

Parrya turkumining shimoli-sharqiy Yevropa, Rossiya, Uzoq Sharq, Markaziy Osiyo va Ximoloy bo'ylab tarqalgan 41 turi fanga ma'lum. O'zbekiston turlar xilma-xilligining qaynoq markazlaridan biri hisoblanadi va 18 turi mamlakat sarhadlaridan qayd etilgan. Ularning aksariyat qismi kamyob turlar hisoblanadi. Tojibayev parryasi mavjud yaqin qardosh turlaridan (Parrya gracillima va Parrya mollissima) gultojisining morfologiyasi, qirmizi rangi, poyada joylashgan barglarining shakli bilan farqlanadi.

Yangi o'simlik turining biologik va foydalilik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi bo'yicha hozircha ma'lumotlar mavjud emas. Tadqiqotlarning dastlabki natijalari uning tabiiy tarqalish maydonlari ancha tor ekanligi hamda antropogen ta'sir darajasi yuqori bo'lgan hududlarda o'sishini ko'rsatadi. Hozirda olimlarimiz bu o'simlik turi populyatsiyalarini saqlab qolish uchun uni O'zbekiston Qizil kitobining navbatdagi nashriga kiritish ustida tadqiqotlar olib borishmoqda.

O'zbekiston florasining yangi nashrlarini yaratish borasida Botanika instituti olimlarining xalqaro hamkorlik doirasida olib borgan sermahsul tadqiqotlarining yana bir misoli bo'lgan yangi o'simlik turni O'zbekiston hududining boy flora tarkibi va uning turli mintaqalari hali dunyo miqyosidagi ko'plab biologik kashfiyotlar maskani ekanligini ko'rsatadi.



Parrya tojibaevii D.A. German & Madaminov A-Umumiy ko'rinishi, B-Gultojobargining tuzilishi, C-bargining tuzilishi, D-qo'zoqlarining ko'rinishi.



Parrya tojibaevii tarqalgan landshaftlar (Chotqol daryosining Chorvoq suv omboriga quyilishi yaqini).